



OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING MEDIA-KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Sayfullayeva Gulhayo Ixtiyor qizi

Navoiy davlat universiteti professori

O'rinova Ditora

Navoiy davlat universiteti magistranti

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarida media-kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari tahlil qilinadi. Media-kompetentlik tushunchasining mazmuni, uning tarkibiy qismlari hamda zamonaviy ta'lim jarayonidagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, media ta'limning pedagogik va psixologik asoslari, talabalar shaxsini shakllantirishdagi ahamiyati ko'rib chiqiladi.*

***Kalit so'zlar:** media-kompetentlik, media ta'lim, raqamli savodxonlik, tanqidiy fikrlash, oliy ta'lim, axborot madaniyati.*

***Аннотация.** В данной статье анализируются теоретические основы развития медиакомпетентности у студентов высших учебных заведений. Освещено содержание концепции медиакомпетентности, её компоненты и роль в современном образовательном процессе. Также рассмотрены педагогические и психологические основы медиаобразования, его значение в формировании личности студентов.*

***Ключевые слова:** медиакомпетентность, медиаобразование, цифровая грамотность, критическое мышление, высшее образование, информационная культура.*

***Annotation.** This article analyzes the theoretical foundations of the development of media competence in students of higher education institutions. The content of the concept of media competence, its components and its role in the modern educational process are highlighted. The pedagogical and psychological foundations of media education, its importance in the formation of the personality of students are also considered.*

***Key words:** media competence, media education, digital literacy, critical thinking, higher education, information culture.*

KIRISH

Globallashuv va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida axborot oqimlari hajmining keskin ortishi jamiyat a'zolaridan, ayniqsa, oliy ta'lim muassasalari talabalaridan yuqori darajadagi media-kompetentlikni talab etmoqda. Talabalar nafaqat axborotni qabul qiluvchi, balki uni tahlil qiluvchi, baholovchi va yaratishga qodir faol subyekt sifatida shakllanishi zarur. Shu bois, media-kompetentlikni rivojlantirish masalasi zamonaviy ta'limning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Media-kompetentlik — bu shaxsning ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan axborotni tushunish, tahlil qilish, tanqidiy baholash va undan samarali



foydalanish qobiliyatidir. Ilmiy manbalarda media-kompetentlik quyidagi tarkibiy qismlardan iborat deb qaraladi:

- bilim komponenti (media vositalari, ularning ishlash mexanizmlari haqida bilim);
- ko'nikma va malakalar (axborotni tahlil qilish, solishtirish, ishonchligini aniqlash);
- qadriyat va munosabatlar (axborotga nisbatan mas'uliyatli va tanqidiy yondashuv);
- ijodiy faoliyat (media mahsulotlar yaratish qobiliyati).

Dunyoda mediata'limning ahamiyati turli xalqaro tashkilotlar, jumladan, YuNESKO tavsiyalarida alohida ta'kidlanib, quyidagicha ta'rif berilgan: mediata'lim (media education) media (bosma va grafik, tovush, ekran va boshqa axborot manbalari) va media texnologiyalar bilan bog'liq bo'lib, u talabalarga ommaviy axborot vositalari qay tarzda qo'llanishini tushunish, boshqalar bilan aloqa qilganda mediadan foydalanish qobiliyatini egallash imkonini beradi.

Xorijiy davlatlarda shu sohada tadqiqot olib borayotgan bir qator olimlar: Ye. Nikitina., I. Fateeva., W. Potter., R. Kubey., Mc. Mahonlarni oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish borasidagi fikrlariga ko'ra, mediata'lim tarbiyaviy, ta'limiy ahamiyatga ega bo'lib, talabalarni ta'lim-tarbiya jarayonida tanqidiy-tahliliy fikrlashga o'rgatadi.

Professor A.V.Fedorov zamonaviy olamdagi mediata'limni ommaviy axborot bilan muloqot madaniyatini shakllantirish maqsadida ijodiy, kommunikativ salohiyatlar, tanqidiy tafakkur, mediamatnlarni to'laqonli idrok etish, talqin qilish, tahlil qilish va baholash, mediatexnologiya yordamida o'z-o'zini ifodalashning turli shakllariga o'qitish maqsadida ommaviy kommunikatsiya, media vositalari va materiallari yordamida shaxsni rivojlantirish jarayoni sifatida ko'radi. M.M.Vaxobovning fikriga ko'ra, o'quvchi-yoshlarda mediasavodxonlik, mediamadaniyat va mediakompetentlikni rivojlantirish orqali turli axborot xurujlari, buzg'unchi yot g'oyalardan asrash, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mediata'lim – asosiy qonunlarni tushunishga yordam beradigan, oddiy yo'nalishlardagi media axborot tilini o'rganishga ko'maklashadigan, talabalar badiiy salohiyatining o'sishiga va rivojlanishiga hissa qo'shadigan, mediamatnlarni qabul



qilish, o'rganish va malakali tahlil etish ko'nikmasini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonidir.

Mediata'lim natijasida mediakompetentlik paydo bo'ladi. Mediakompetentlik (media competence) ta'limga kirib kelayotgan yangi atama hisoblanib, u mediama'lumotlarni turli ko'rinishda uzatish va baholash, o'rganish, yetkaza bilish kabi ma'nolarni o'z ichiga oladi.

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, mediakompetentlik tushunchasi ostida yotadigan bir necha atamalar, jumladan, mediamadaniyat, mediatarg'ibot, mediata'lim, mediaaxborot, axborot madaniyati, mediasavodxonlik kabi atamalarga e'tiborliroq bo'lish barkamol avlodni voyaga yetkazishda alohida o'rin egallaydi.

I.G.Zaxarova, I.V.Robert, Ye.I.Sokolova, A.V.Fedorov, O.K.Filatov, A.V.Sharikov, Ye.N.Yastrebseva va boshqalarning tadqiqotlarida media vositalarini qo'llash bo'lajak pedagoglarning mediakompetentligini oshirishga imkon beradigan, shu bois ularni tayyorlashda alohida ahamiyat kasb etadigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash bilan bevosita bog'liqligi ko'rsatib o'tilgan.

Ko'plab axborot tahdidlar yoshlarimiz ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishga urinayotgan bir davrda ana shu jarayonlarni psixologik tahlil qilish va yoshlarimizni bunday mediatahdidlardan muhofaza etishning yo'llarini izlab topib, hayotga joriy etish juda muhim vazifa hisoblanadi. Bunday sharoitda mediakompetentlikni zamonaviy talablarini hisobga olgan holda rivojlantirish, bu jarayonning pedagogik sharoitlarini aniqlash talab etiladi. Hozirda ilmiy-texnik taraqqiyot talablariga mos holda oliy talim muassasalari talabalarining axborot texnologiyalari borasidagi bilimlarini takomillashtirish orqali mediakompetentlikni rivojlantirish yo'nalishlarini belgilash lozim. Talabalarning mediakompetentligini rivojlantirishga ijtimoiy va informatsion omillar o'z ta'sirini o'tkazadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. Media-kompetentlikning nazariy asoslarini chuqur o'rganish va amaliyotga joriy etish orqali talabalarni axborot makonida ongli, tanqidiy va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xakimov, M., & Maffei, S. (2022). Integrated learning technology. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(4), 704-708.